TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBAT MUHITINI YARATISH ORQALI OLIY TA'LIM TIZIMI SIFATINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

Ibragimova Gulchexra Toxirovna
Fan va texnologiyalar universiteti " Iqtisodiyot " kafedrasi dotsenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.16735203

Annotatsiya. *Maqolada O'zbekistonda oliy ta'lim tizimining sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun ta'lim xizmatlari bozorida raqobat muhitini yaratishning dolzarb masalalari muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar*: oliy ta'lim, raqobatbardoshlik, Bolonya jarayoni, kredit-modul tizimi, ta'lim sifatini baholash, innovatsion metodlar, akademik mustaqillik, xalqaro reytinglar.*

Аннотация. *В статье рассматриваются актуальные вопросы повышения качества системы высшего образования в Узбекистане и создания конкурентной среды на рынке образовательных услуг для подготовки конкурентоспособных кадров.*

Ключевые слова: *высшее образование, конкурентоспособность, Болонский процесс, кредитно-модульная система, оценка качества образования, инновационные методы, академическая независимость, международные рейтинги.*

Abstract. *This article examines the pressing issues of creating a competitive environment in the educational services market to enhance the quality of the higher education system in Uzbekistan and train competitive personnel.*

Keywords: *higher education, competitiveness, Bologna Process, credit-module system, education quality assessment, innovative methods, academic independence, international rankings.*

Kirish

Jahon iqtisodiyotini barqaror va samarali rivojlanishi innovatsion texnologiyalari bilan bog'liq ekanligi uni rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash bilan bog'liq. Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim sifatini, kadrlar raqobatbardoshligini oshirish, ularning intelektual faolligini oshirish masalalari bilan YUNESKO, oliy ta'lim sifatini rivojlanib borishini ta'minlashni oliy ta'lim sifatini ta'minlash Yevropa tarmog'i olib bormoqda.

Jahonda oliy ta'lim tizimini uning mazmunini jahon darajasiga ko'tarish yangi ilg'or modulli ta'limni tashkil etish, o'qitishning xalqaro ilg'or tajribalarini tashkil etish asosida bo'lajak tayyorlanadigan mutaxassislarning kasbiy jihatdan talabga javob beradigan darajada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Jahon rivojlangan mamlakatlarida yuqori malakali kadrlarni tayyorlashni qanchalik dolzarb ahamiyatga ega ekanligi to'g'risida «Oliy ta'limni Yevropa Kengligi» kabi integratsion jarayonlar va harakatlarning *paydo bo'lishi hozirgi vaqtlarda oliy ta'limni bir mamlakat doirasida rivojlana olmasligini ko'rsatmoqda*[1].

[1] Lutfullaev P.M.Xorijiy oliy ta'lim muassasalarida sifat va raqobatbardoshlikni ta'minlash yo'llari // pedagog. fan. bo'yi. falsafa dok. (PhD) dissert. avtoreferati. // Namangan 2018. 50 b.,5 b.

Respublikamiz milliy iqtisodiyotini barqaror va iqtisodiy jihatdan rivojlanishini ta'minlash uchun uni jahon iqtisodiyotida yuqori iqtisodiy rivojlanishga ega bo‘lgan mamlakatlar bilan integratsiyalashuvini ta'minlash respublika oliy ta'lim tizimini keng ko‘lamda oliy ta'lim islohotlarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan chora tadbirlarni ishlab chiqish Yevropa va jahonda taraqqiy etgan oliy ta'limni boshqaruv tizimi, moliyalash, akademik va ilmiy aloqalarni kuchaytirish orqali ularning ilg‘or tajribalarini o‘rganib borishga va uni amaliyotga joriy etishga aloxida e'tibor qaratilmoqda. Respublikamizda 2017-2021 yillarda mamlakatimizni yanada rivojlantirish asosida jahondagi ilg‘or mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan rivojlanish darajalari bilan tenglashishni ta'minlovchi Harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo‘nalish-larini amalga oshirish bo‘yicha qabul qilingan davlat dasturlarida xalqaro oliy ta'lim tajribalariga tayangan holda oliy ta'limni milliy tizimini sifatini oshirib borish asosida barcha mamlakatlarning qo‘llab quvvatlovchi Balonya jarayoniga qo‘shilish masalasini xal etish chora-tadbirlarining muhimligi qayd etilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ta'lim xizmatlari bozorida raqobat muhitini yaratish jarayonlari iqtisodchi olimlar Petti U., A.Smit, D.S.Mil, A.Marshall, P.Samuelson, Y.Shumpeter, tadqiq etganlar. G.Bekker "inson kapitali" ta'lim xizmatlari bozoriga ta'sirini tahlil qiladi. Bozor munosabatlari sharoitida ta'lim xizmatlari bozorining rivojlanishi, uni davlat tomonidan tartibga solishni, ta'lim sohasida iqtisodiy munosabatlar P.Draker, V.Marshenkevich, I.Soboleva, S.A.Dyatlov,N. Litvinova, V.Sheremeteva, L.I.Yakobson, T.Shamova, P.I.Tretyakov, V.V.Gluxov tadqiqotlarida tahlil etilgan[2].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot ishida kuzatish, umumlashtirish, omilli va dinamik taqqoslash, mantiqiy tahlil, induksiya va deduksiya, statistik tahlil, qiyoslash, emperik tadqiqot hamda qiyosiy tahlil kabi usullardan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Jahon iqtisodiyotida o‘z o‘rnini egallagan rivojlangan mamlakatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan hamkorlik qilishni naqadar ahamiyatga ega ekanligini tanolgan holda AQSh, Yevropa, Koreya, Rossiya, mamlakatlarining ilg‘or oliy o‘quv yurtlari bilan o‘zaro xamkorlik munosabatlarini o‘rnatilayotganligi, ular bilan birgalikda bakalavr, magistrlik va ilmiy unvonlar berish bilan bog‘liq bo‘lgan ta'lim berish faoliyatining kengaytirib borishi muhim ahaiyatga ega ekanligini ko‘rsatmoqda.

Iqtisodiy ijtimoiy xamkorlikni rivojlangan jahon mamlakatlari bilan olib borishni ta'minlashda eng ustuvor yo‘nalishlar oliy ta'limni modernizatsiyalashni amalga oshirish zarurligi asosida mamlakat iqtisodiyotini unga bo‘lgan talabini qondirishni ta'minlash mumkin. Buning uchun:

- respublikada oliy ta'lim tizimini rivojlantirishni ko‘p yillik strategiyasini ishlab chiqish zarur; oliy o‘quv yurtlariga talabalikka qabul qilish, ularni o‘qitish, bilim berish masalalarini mehnat resurslari bozori talablari asosida shakllantirish;

[2] Петти У. Экономические и статистические работы-М.: Соц.эк.гиз, 1940-185.с.; Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. -М.: Соц.эк.гиз, 1935-234.с.; Шамова Т., Третьяков П.И. Управление образовательными системами. –М.: Владос, 2001-319.с.; Экономика и организация управление вузом. /Под.ред.Глухова В.В./ - СПб: 1999-447.с.

- oliy ta’lim yurtlariga yuqori bilimga ega bo‘lgan yoshlarni talabalikka qabul qilish uchun davlat test markazi faoliyatini milliy iqtisodiyot tarmoqlari uchun ishlab chiqarishga zarur bo‘lgan kadrlarga bo‘lgan talablaridan kelib chiqqan holda ularni malakalarini oshirish bo‘yicha oliy o‘quv yurtlarida talabalikka qabul qilish kvotalarini ularga mustaqil belgilash, malakalarini oshirish yo‘nalishlarini aniqlash huquqlarini berish;
- oliy o‘quv yurtlarini to‘liq o‘zini-o‘zi bozor talablaridan kelib chiqqan holda xo‘jalik hisobi ta’lim berish faoliyatlarini moliyalashtirish, stipendiyalarni berish hajmini aniqlash, ishlab chiqarish subyektlari bilan keng maromda xamkorlikni o‘rnatish asosida o‘quv yurtlari amaliy va ilmiy labaratoriyalarni xamkorlikda tashkil etish, ularni mutaxassislarga bo‘lgan bozor talabalaridan kelib chiqqan holda takomillashtirib berish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida respublikamiz oliy ta’lim tizimi malakali oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlashda o‘zining talabalikka qabul qilish kvotalari bilan, kadrlar tayyorlashni sifati va bilmiy darajalari bilan talabga yetarli darajada javob bermaydi. Shuning uchun bizning fikrimizcha oliy o‘quv yurtlariga qabul qilish kvotalarini markazlashtirilgan darajadan oliy o‘quv yurtlariga berish asosida ularni sifat darajalarini o‘zgartirishga erishish mumkin. Chunki milliy iqtisodiyotimizni rivojlanishi ta’lim tizimini samarali rivojlanishimiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Oliy ta’lim tizimida milliy kadrlarni innovatsion yo‘nalish darajasida tayyorlashda ichki nazorat boshqaruvi nazorati natijasi kadrlarni innovatsion bilimlar berish darajasida mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni o‘qitish jarayonida tadbiq etish, bajarilishini nazorat etishni amalga oshirish zarur.

Ta’lim tizimini innovatsion talablar asosida tashkil etishda tekshiruv natijasida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni to‘liq bartaraf etishda asosiy masala bu kamchiliklarni to‘liq bartaraf etishda asosiy masala bu kamchiliklarni tugatish bo‘lib uni amalga oshirilishi asosida belgilangan maqadga erishish mumkin.

Oliy o‘quv yurtlarida innovatsion bilim darajalariga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlashda ichki sifatli ta’lim tizimini nazorat qilinishi oliy o‘quv yurtlarida aniq iqtisodiy darajada sifatli innovatsion bilim berish asosida kadrlar tayyorlash samaradorligini ifoda etadi. 1999 yilda qabul qilingan «Bolonya protokoli» G‘arbiy va Markaziy Yevropada joylashgan 29 ta mamlakatlar tomonidan deklaratsiya qabul qilingan bo‘lib, undan maqsad Yevropada sifatli oliy ta’lim tizimini shakllantirish hamda Yevropa yagona ta’lim muhiti yaratishdan iborat.

Oliy ta’limda sifat kafolatlari Yevropa assotsiatsiyasi (European Association for Quality Assurancein Higher Education) «Standard sand Guidelines for Quality Assurancein the European Higher Education Area» tomonidan Yevropagi oliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini kafolatlari uchun standart va tavsiyalar ishlab chiqilgan[2]. Bu sifat boshqaruv tizimi Yevropa oliy o‘quv yurtlarida ortiqcha ta’lim tizimi bilan bog‘liq dasturlarni chiqarib tashlash hisobiga oliy ta’limni rivojlantirishni takomillashtirish asosida 47 ta mamlakatlarda unifikatsiyalashgan ta’lim tizimiga o‘tishni ta’minladi.

Bolonya kelishuvi quyidagi beshta asosiy masalani belgilab bergan:

- qabul qilingan tizimni mohiyatini aniq anglash asosida diplom ishlariga ta’lim berish tizimini kiritilishi;

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni. www.lex.uz

- ta’lim tizimi uchun bakalavr va magistr bosqichida bo‘lishini kiritilishi natijasida ta’lim tizimi uch bosqichli bakalavr, magistr, falsafa doktori (PhD) darajasidan iborat bo‘ladi;
- talabalar uchun pul o‘tkazish va kredit jamg‘armalari Yevropa pul tizimini va kredit (YePUT) jamg‘arish tizimini tashkil topishi;
- ta’lim tizimida sifatni ta’minlash maqsadida Yevropa hamkorligini tashkil topishi Yevropa standarti va shartlari belgilanishi natijasida (SBR) Yevropa sifatini belgilash reestrini shakllantirilgani;
- Yevropa sifat o‘lchovlarini oliy ta’lim tizimiga kiritilishi natijasida ya’ni oliy ta’lim kengashi va unga a’zo bo‘lishi bilan ifodalanadi.

Ta’limni sifatini oliy ta’lim o‘quv yurtlarida ta’minlash agentligi Yevropa yetarli darajada umumiy shartlarga rioya qilgan holda Yevropa sifat talablariga 2008 yilda tashkil etilgan Yevropa sifatini ta’minlash reestri (YeSTR) milliy xarakatni Yevropa ittifoqida va boshqa mamlakatlarda oliy ta’limni sifatini oshirish va oliy ta’limga ega bo‘lgan mutaxassislarni ko‘chishini ta’minlovchi bu tashkilot tashkil topgan. Ushbu tashkilotning faoliyatini doimiy ravishda (YaXQR) yagona xarakat qilish ro‘yxati asosida amalga oshiriladi.

Respublikada Bolonya tizimiga o‘tish jarayoni oliy ta’limda o‘tish jarayonida bo‘lib u xali tugallanmagan. Respublikada bu muammoni xal etish bo‘yicha davlat tomonidan Bolonya tizimi tomonidan qo‘yilgan talablarni bajarish uchun respublika oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi kompleks ishlab chiqilgan dastur asosida oliy ta’lim tizimini takomillashtirish asosida yuqori malakali mehnat bozori talabalariga javob beradigan kadrlarni tayyorlashni amalga oshirish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi va Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribasi hamda THE (Times Higher Education), QS (Quacquarelli Symonds), ARWU (Academic Ranking of World Universities) kabi yirik reyting agentliklari uslublarini o‘rganish asosida oliy o‘quv yurtlarini reytinglari aniqlandi. Unga ko‘ra oliy o‘quv yurtlarining reyting baholari natijalariga yakuniy yig‘ma ko‘rsatkich oliy o‘quv yurtlari o‘rtasida 22,84 balldan 57,07 balgacha baholash tizimig asolanib, mamlakatimizda oliy o‘quv yurtlari reytingi aniqlandi.

Respublika oliy o‘quv yurtlarida uning o‘qitish, malaka oshirish, xalqaro standartlar asosida baholashni yo‘lga qo‘yish uchun:

- oliy o‘quv yurtlarida oliy ta’limni sifatini oshirish bo‘yicha zarur bo‘lgan talabni ishlab chiqish, unda hozirgi davr talabalariga javob beradigan yangi mexanizmlar bilan o‘ziga o‘zi baho berish usullarini qo‘llash;
- o‘qitish sifatini amalga oshirishni ta’minlashda ta’lim milliy tizimini yo‘nalishlarida o‘qitish samaradorligini aniqlovchi xalqaro ta’lim sifatini tahlil qiluvchi tashkilotda respublika qatnashuvini ta’minlash;
- ta’lim sifatini oshirishda o‘quv tizimini takomillashtirishga, talabalarni malakaviy darajasini oshirishga asosiy e’tiborni berish;
- respublikada oliy malakali mutaxassislarni tayyorlashda Bolonya jarayoni va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish tashkiloti takliflaridan kelib chiqqan holda maqbul bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar asosida moddiy rag‘batlantirish, ichki va tashqi erishgan yutuqlarini moddiy rag‘batlantirish;

- xalqaro tajribalarni o‘rgangan holda oliy ta’lim muassasalarining o‘quv rejalarini kredit-modul tizimiga o‘tkazish mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni bosqichma-bosqich oliy ta’lim tizimiga joriy qilish[3];
- talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o‘quv rejalar ishlab chiqish hamda kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlariga muvofiq ta’lim dasturlarini shakllantirish va tasdiqlash yuzasidag oliy ta’lim muassasalariga bosqichma – bosqich akademik mustaqillik berish[4];
- o‘qitish tizimini yaxshilash jarayonida oliy o‘quv yurtlarining ichki mexanizmlaridan foydalanishning e’tibor berish, yangi oliy o‘quv yurtlari darajasida ularning o‘quv uslubiy, ilmiy-tadqiqot va talabalar o‘rtasida ta’lim tarbiya ishlarini olib borishni samarali darajasini aniqlash usulini ishlab chiqish zarur.

Jahonda ta’lim tizimi xizmatlari hozirgi XXI asr davrida asosiy daromad keltiruvchi soha hisoblanadi. YuNESKO ma’lumotlariga ko‘ra keyingi 25 yil ichida talabalar soni 300 foizga ko‘paygan bo‘lsa bu ko‘rsatkich 2025 yilga kelib ularning soni 4,9 millionni tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni. **www.lex.uz**
2. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola. T.: “Ma’naviyat”, 2017. - 243b.
3. Abdullayev Y., Karimov F. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. – T.: Mehnat, 2010. – 349 b.
4. Abdusattarova X.M. Innovatsiya strategiyasi. T.: TDIU, 2011. B.39.
5. Bekmurodov A.Sh., Majidov I.U., G‘afurov A.V. Buyuk va muqaddassan, mustaqil vatan. T.: O‘qituvchi. 2011. 124-b.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni. www.lex.uz
[4] Usha manba